

# MUHANDISLIK

## & IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

### №4 (2)

2026  
APREL



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari  
08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™  
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic  
Resource  
Index  
ResearchBib

ISSN  
INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE


ROAD

INDEX COPERNICUS  
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ  
БИБЛИОТЕКА  
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ  
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА  
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, aprel.

## Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

## Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

## Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

## Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti




# MUNDARIJA

BYUDJET SUBYEKTLARI ISHTIROKINI QISQARTIRISH ASOSIDA KREDIT RISKINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH .....	16
<b>PhD. Mahmudov Rahimjon Hamid o'g'li</b>	
MINTAQA IQTISODIYOTI TARMOQLARINI KLASSTERLASHTIRISH SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING EMPIRIK MODEL: STATISTIK VA EKONOMETRIK TAHLIL .....	25
<b>Ollokulova Feruza Mansurovna, Abdurahmonov Abdulaziz Maxmudovich</b>	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA PUL OQIMLARI AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI .....	30
<b>Atamurodov Saidmurad Yaxyoyevich, Sindarova Aziza Musurmon qizi</b>	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH .....	42
<b>Xasanov Sardor Xazratkulovich</b>	
IQTISODIY O'SISH SIFATI VA UNI KO'RSATKICHLARINING KONSEPTUAL ASOSLARI .....	50
<b>Axmedov Xasanjon Muxamadovich</b>	
IQTISODIY O'SISH SIFATI VA UNI KO'RSATKICHLARINING KONSEPTUAL ASOSLARI .....	55
<b>Axmedov Xasanjon Muxamadovich</b>	
ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KORXONALAR RENTABELLIGIGA TA'SIRI .....	60
<b>Hayitov Jamshid Xolboyevich</b>	
KREDITLASH MEXANIZMINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI VA UNING TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI .....	65
<b>Ortiqov Husan Usmonaliyevich</b>	
DAVLAT SEKTORIDA ICHKI AUDIT FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH .....	70
<b>Xamidova Zarifa Urol qizi</b>	
ISTE'MOL NARXLARI INDEKSINI MODELLASHTIRISH VA PROGNOZLASHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI .....	74
<b>Ismailova Shaxnoza Uktamovna</b>	
XIZMATLAR SEKTORI RIVOJLANISHINING KAMBAG'ALLIKKA TA'SIRINI BAHOLASH METODOLOGIYASI VA KO'RSATKICHLAR TIZIMI .....	77
<b>Dawletmuratov Adilbay Mirzaboyevich</b>	
BIZNES JARAYONLARINI MONITORING QILISH TIZIMINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI .....	84
<b>Dadajonova Madina Ravshan qizi</b>	
ISTE'MOL NARXLARI INDEKSINI MODELLASHTIRISH VA PROGNOZLASHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI .....	89
<b>Ismailova Shaxnoza Uktamovna</b>	
MINTAQA IQTISODIYOTI TARMOQLARINI KLASSTERLASHTIRISH SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING EMPIRIK MODEL: STATISTIK VA EKONOMETRIK TAHLIL .....	94
<b>Ollokulova Feruza Mansurovna, Abdurahmonov Abdulaziz</b>	
ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KORXONALAR RENTABELLIGIGA TA'SIRI .....	100
<b>Hayitov Jamshid Xolboyevich</b>	
IMPROVING THE EFFICIENCY OF BANKS' GREEN FINANCING IN UZBEKISTAN AND KAZAKHSTAN .....	105
<b>Maxmudov Rahimjon</b>	
MAHALLIY BUDJETLAR MUSTAQILLIGINI TAKOMILLASHTIRISH VA YANADA OSHIRISH .....	109
<b>Abduraxmonova Gulmira</b>	



# MAHALLIY BUDJETLAR MUSTAQILLIGINI TAKOMILLASHTIRISH VA YANADA OSHIRISH



**Abduraxmonova Gulmira Sobir qizi**

Termiz davlat universiteti

Iqtisodiyot mutaxassisligi 1-kurs magistranti

Orcid: [0009-0003-8381-1000](https://orcid.org/0009-0003-8381-1000)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada mahalliy budjetlar mustaqilligini oshirishning nazariy va amaliy jihatlari o'rganildi. Tadqiqotda mahalliy budjetlarning daromad va xarajat tuzilmasi tahlil qilindi. Shuningdek, fiskal vakolatlar darajasi va ularning hududiy taqsimlanishi ko'rib chiqildi. Rivojlangan davlatlar tajribasi asosida fiskal desentralizatsiya samaradorligi baholandi. Tahlil natijasida markaziy budjetga yuqori bog'liqlik mavjudligi aniqlandi. Ushbu holat mahalliy budjetlar mustaqilligini cheklovchi asosiy omil sifatida baholandi. Muammoni bartaraf etish uchun daromad bazasini kengaytirish va moliyaviy boshqaruvni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi.

**Kalit so'zlar:** mahalliy budjet, fiskal desentralizatsiya, moliyaviy mustaqillik, daromad bazasi, transfertlar, hududiy rivojlanish.

**Аннотация.** В данной статье изучены теоретические и практические аспекты повышения самостоятельности местных бюджетов. В исследовании проанализированы структура доходов и расходов местных бюджетов. Также рассмотрены уровень фискальных полномочий и их территориальное распределение. На основе опыта развитых стран оценена эффективность фискальной децентрализации. В результате анализа выявлена высокая зависимость от центрального бюджета. Данная ситуация оценена как основной фактор, ограничивающий самостоятельность местных бюджетов. Для решения проблемы разработаны предложения по расширению доходной базы и совершенствованию финансового управления.

**Ключевые слова:** местный бюджет, фискальная децентрализация, финансовая самостоятельность, доходная база, трансферты, региональное развитие.

**Annotation.** This article examines the theoretical and practical aspects of increasing the independence of local budgets. The study analyzes the revenue and expenditure structure of local budgets. It also reviews the level of fiscal powers and their territorial distribution. Based on the experience of developed countries, the effectiveness of fiscal decentralization is assessed. The analysis reveals a high dependency on the central budget. This situation is identified as the main factor limiting the independence of local budgets. To address this issue, proposals are developed to expand the revenue base and improve financial management.

**Keywords:** local budget, fiscal decentralization, financial independence, revenue base, transfers, regional development.

## KIRISH

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda davlat moliya tizimini takomillashtirish, xususan, mahalliy budjetlar mustaqilligini oshirish masalasi ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Global iqtisodiy integratsiya jarayonlari va hududlararo raqobatning kuchayishi sharoitida mahalliy boshqaruv organlarining moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish zarurati ortib bormoqda. Bu esa, o'z navbatida, fiskal desentralizatsiya jarayonlarini chuqurlashtirishni taqozo etadi.

Mahalliy budjetlar hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni moliyalashtirishda muhim instrument bo'lib, ularning mustaqilligi resurslardan samarali foydalanish, hududiy ehtiyojlarni inobatga olish va aholiga ko'rsatiladigan

xizmatlar sifatini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, amaliyot shuni ko'rsatadiki, ko'plab hududlarda mahalliy budjetlar daromadlarining yetarli darajada shakllanmaganligi, ularning markaziy budjet transfertlariga yuqori darajada bog'liqligi hamda moliyaviy vakolatlarining cheklanganligi mavjud muammolardan biridir.

Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, rivojlangan davlatlarda mahalliy budjetlar mustaqilligi yuqori darajada ta'minlangan bo'lib, bu hududiy iqtisodiy o'sish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan, milliy amaliyotda ushbu tajribalarni o'rganish va moslashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolaning maqsadi mahalliy budjetlar mustaqilligini oshirishning nazariy asoslarini o'rganish, mavjud muammolarni tahlil qilish hamda ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot vazifalari sifatida mahalliy budjetlar daromad bazasini baholash, fiskal vakolatlar darajasini tahlil qilish va ularni takomillashtirish yo'nalishlarini aniqlash belgilandi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mahalliy budjetlar mustaqilligini oshirish va fiskal desentralizatsiya masalalari iqtisodiyot fanida keng o'rganilgan va dolzarb yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlar ushbu jarayonning asosiy maqsadi sifatida hududiy moliyaviy resurslardan samarali foydalanish, iqtisodiy rivojlanishni tezlashtirish hamda davlat moliya tizimining barqarorligini ta'minlashni ko'rsatadi.

Wallace E. Oates fiskal desentralizatsiya nazariyasida markazlashmagan moliya tizimi resurslardan samaraliroq foydalanishni ta'minlashini va mahalliy darajadagi qarorlar aholining ehtiyojlariga yaqinroq bo'lishini asoslab bergan. Uning yondashuvida hududiy boshqaruvni kuchaytirish davlat xizmatlari sifatini oshirish va iqtisodiy samaradorlikka erishishda muhim omil sifatida qoraladi.

Richard Musgrave davlat moliyasi nazariyasida fiskal funksiyalarni markaziy va mahalliy darajalar o'rtasida optimal taqsimlash zarurligini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, resurslarni qayta taqsimlash va barqarorlashtirish funksiyalari markaziy darajada, xizmat ko'rsatish va hududiy ehtiyojlarni qondirish esa mahalliy darajada samaraliroq amalga oshiriladi.

Shuningdek, xalqaro va mintaqaviy tadqiqotlarda fiskal desentralizatsiya darajasining yuqoriligi hududlarning o'z daromad bazasini kengaytirishi, soliq ma'murchiligini takomillashtirishi va transfertlarga bog'liqlikni kamaytirishi bilan bog'liqligi ta'kidlanadi. Rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi esa markaziy budjetga yuqori qaramlik ko'pincha hududiy rivojlanishning sekinlashishiga olib kelishini ko'rsatadi.

Milliy iqtisodiy adabiyotlarda ham mahalliy budjetlar barqarorligini ta'minlash, soliq siyosatini takomillashtirish va fiskal vakolatlarini kengaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Tadqiqotchilar mahalliy darajada moliyaviy mustaqillikni oshirish uchun institutsional islohotlar va boshqaruv samaradorligini kuchaytirish zarurligini ta'kidlaydilar.

Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mahalliy budjetlar mustaqilligini oshirish fiskal desentralizatsiya jarayonlarini chuqurlashtirish, daromad manbalarini kengaytirish va moliyaviy boshqaruv samaradorligini oshirish bilan bevosita bog'liqdir. Shu bilan birga, ushbu yo'nalishda ishlab chiqiladigan amaliy mexanizmlar milliy iqtisodiy sharoitga moslashtirilishi lozim.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda mahalliy budjetlar mustaqilligini oshirish masalalarini kompleks o'rganish maqsadida turli ilmiy usullar va yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi nazariy va empirik tahlil usullarining uyg'unligiga asoslanadi.

Avvalo, tizimli tahlil usuli yordamida mahalliy budjetlarning iqtisodiy mohiyati, ularning davlat moliya tizimidagi o'rni va funksiyalari o'rganildi. Ushbu yondashuv orqali mahalliy budjetlar faoliyatiga ta'sir etuvchi omillar o'zaro bog'liqlikda tahlil qilindi.

Tadqiqotda statistik tahlil usullari ham keng qo'llanildi. Jumladan, mahalliy budjet daromadlari va xarajatlari dinamikasi, ularning tarkibiy tuzilmasi hamda transfertlarga bog'liqlik darajasi rasmiy statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilindi. Dinamik qatorlar tahlili orqali vaqt davomida yuz berayotgan o'zgarishlar baholandi.

Bundan tashqari, normativ-huquqiy hujjatlar tahlili asosida mahalliy budjetlar faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik bazasi o'rganildi. Ushbu tahlil orqali mavjud mexanizmlarning samaradorligi va ularning amaliyotdagi muammolari aniqlashtirildi.

Tadqiqot davomida induksiya va deduksiya usullari yordamida umumiy xulosalar chiqarildi hamda muammolarni hal etishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi.


Mazkur metodologik yondashuvlar majmuasi mahalliy budjetlar mustaqilligini oshirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash va asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qildi.



## TAHLIL VA NATIJALAR

Mahalliy budjetlar mustaqilligini oshirishda asosiy muammo ularning daromad bazasining yetarli darajada shakllanmaganligi va budjetlararo transfertlarga yuqori bog'liqligidir. Daromadlar o'sib borayotgan bo'lsa-da, xarajatlarning tezroq kengayishi fiskal muvozanatni saqlashni qiyinlashtirmoqda. Bu holat hududlar o'z ehtiyojlarini asosan markaziy moliyaviy resurslar hisobiga qoplashda davom etayotganini ko'rsatadi.

Shuningdek, soliq salohiyatining hududlar kesimida notekis taqsimlanishi va mahalliy darajadagi moliyaviy vakolatlarning cheklanganligi budjet mustaqilligini pasaytiruvchi asosiy omillar hisoblanadi.



### 1-rasm. Mahalliy budjetning asosiy ko'rsatkichlari<sup>1</sup>

Mahalliy budjetlar daromadlari va xarajatlarining 2024–2025-yillardagi dinamikasi hududiy moliya tizimida ijobiy o'sish tendensiyalari shakllanayotganini ko'rsatadi. Daromadlar 57 trln so'mdan 71,3 trln so'mga yetib, 25 foizga oshgan bo'lib, bu iqtisodiy faollikning kengayishi, soliq bazasining kengayishi va fiskal mexanizmlar samaradorligining oshishi bilan izohlanadi. Natijada mahalliy budjetlarning o'z daromadlarini shakllantirish salohiyati ma'lum darajada mustahkamlangan.


Shu bilan birga, xarajatlar 86,8 trln so'mdan 109,2 trln so'mga oshib, 25,8 foizlik o'sishni qayd etgan. Bu hududiy darajada ijtimoiy-iqtisodiy majburiyatlar kengayayotganini, ayniqsa ijtimoiy soha va infratuzilma loyihalariga yo'naltirilgan xarajatlar ortayotganini anglatadi. Daromad va xarajatlar o'sish sur'atlari o'rtasidagi tafovut xarajatlar ustunligini ko'rsatib, mahalliy budjetlarning ichki daromadlari hali yetarli emasligini bildiradi. Ushbu nomutanosiblik budjetlararo transfertlar hisobiga qoplanmoqda.

Transfertlar 29,8 trln so'mdan 37,9 trln so'mga oshib, 27,4 foizga ko'paygan bo'lib, bu hududlar moliyaviy ta'minotida markaziy budjetning roli yuqori ekanligini tasdiqlaydi. Bu holat hududlararo iqtisodiy tafovutlar va soliq salohiyatining notekis taqsimlanishi bilan bog'liq. Daromadlar o'sishi ijobiy bo'lsa-da, ularning barqarorligi va yetarliligi to'liq ta'minlanmagan, transfertlarga qaramlik esa fiskal mustaqillikni cheklovchi asosiy omil bo'lib qolmoqda.

1 O'zbekiston respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi <https://www.instagram.com/p/DWFL0ONDlh/>

### 2025-yil uchun davlat budjetining hududlar kesimidagi ijrosi (mlrd so'm)

■ Mahalliy budjet daromadi ■ Mahalliy budjet xarajati ■ O'zaro hisob-kitob va transfertlar ■ O'tgan yilga nisbatan o'sish, %



### 2-rasm. 2025-yil uchun davlat budjetining hududlar kesimidagi ijrosi

Mahalliy budjetlar daromadlarini oshirish hududiy iqtisodiy bazani kengaytirish, investitsion faollikni kuchaytirish hamda sanoat va xizmatlar sektorini rivojlantirish bilan bog'liq. Shuningdek, mahalliy soliqlar tizimini takomillashtirish va ularning undirilish samaradorligini oshirish muhim ahamiyatga ega.

Fiskal boshqaruvni raqamlashtirish orqali soliq ma'murchiligini yaxshilash, yashirin iqtisodiyot ulushini kamaytirish va budjet xarajatlarini samarali yo'naltirish orqali mavjud moliyaviy resurslardan to'liq foydalanish mumkin.

Taqdim etilgan statistik ma'lumotlar 2024–2025-yillar kesimida mahalliy budjetlar fiskal tizimida o'sish bilan birga hududlararo sezilarli nomutanosibliklar saqlanib qolayotganini ko'rsatadi. Daromadlar 1 929–13 486 mlrd so'm oralig'ida shakllanib, barcha hududlarda o'sish kuzatilgan bo'lsa-da, ularning tarkibiy barqarorligi bir xil emas. Daromadlarning yuqori konsentratsiyasi Toshkent shahri (13 486), Toshkent viloyati (7 378) va Samarqand viloyatida (6 483) kuzatilib, bu hududlarda iqtisodiy faollik va soliq bazasining kengligini anglatadi.

Aksincha, Sirdaryo (1 929), Jizzax (2 605) va Qorakalpog'iston Respublikasida (3 333) daromadlar past bo'lib, bu iqtisodiy infratuzilma va ishlab chiqarish salohiyatining cheklanganligi bilan izohlanadi. Shunga qaramay, Sirdaryo (26,2%), Toshkent viloyati (35,4%) va Navoiy viloyatida (37,8%) yuqori o'sish sur'atlari kuzatilmoqda.

Xarajatlar barcha hududlarda 4 400–15 551 mlrd so'm oralig'ida shakllanib, daromadlardan yuqori yoki unga yaqin sur'atlarda o'smoqda. Eng yuqori xarajatlar Toshkent shahri (15 551), Samarqand (9 896) va Toshkent viloyatida (8 729) qayd etilgan.

Budjetlararo transfertlar tahlili fiskal mustaqillikdagi farqlarni yaqqol ko'rsatadi. Sirdaryo (101,8%), Jizzax (49,3%) va Samarqand (44,3%) yuqori bog'liqlikka ega bo'lsa, Toshkent shahri (–27,2%) va Navoiy viloyatida (–6,7%) transfertlar kamaygan.

Daromadlar o'sishi ijobiy bo'lsa-da, hududlar o'rtasida keskin tafovut saqlanib qolmoqda. Xarajatlar daromadlardan tezroq kengayib, ayrim hududlarda fiskal bosimni kuchaytirmoqda. Transfertlar dinamikasi esa hududlararo fiskal mustaqillik darajasining keskin farqlanishini tasdiqlaydi.

Mahalliy budjetlar mustaqilligini oshirish uchun past daromadli hududlarda (Sirdaryo 1 929, Jizzax 2 605, Qorakalpog'iston 3 333) iqtisodiy bazani kengaytirish zarur. Soliq ma'murchiligini raqamlashtirish orqali yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va daromadlarni oshirish muhimdir.

Transfertlar tizimini rag'batlantiruvchi mexanizmga aylantirish lozim, ayniqsa yuqori qaram hududlarda (Sirdaryo 101,8%, Jizzax 49,3%, Samarqand 44,3%). Toshkent shahri va Navoiy viloyati tajribasi asosida fiskal



mustaqillikni kuchaytirish mumkin. Shuningdek, yuqori xarajatli hududlarda (15 551, 9 896, 8 729 mlrd so'm) natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirishni joriy etish fiskal samaradorlikni oshiradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlil natijalari 2024–2025-yillar kesimida mahalliy budjetlar tizimida ijobiy o'sish tendensiyalari bilan bir qatorda hududlararo sezilarli fiskal nomutanosibliklar saqlanib qolayotganini ko'rsatadi. Daromadlar 1 929 mlrd so'mdan 13 486 mlrd so'mgacha oshgan bo'lib, bu iqtisodiy faollikning kengayganidan dalolat beradi, biroq ushbu o'sish hududlar kesimida notekis taqsimlangan. Shu bilan birga, xarajatlarda hududlarda daromadlardan yuqori yoki unga yaqin sur'atlarda oshib, fiskal bosimni kuchaytirmoqda. Ayniqsa, Toshkent shahri (15 551 mlrd so'm), Samarqand (9 896 mlrd so'm) va Toshkent viloyatida (8 729 mlrd so'm) xarajatlarning yuqori darajasi ijtimoiy-iqtisodiy dasturlar kengayganini ko'rsatadi. Budjetlararo transfertlar dinamikasi esa hududlar moliyaviy mustaqilligida keskin tafovut mavjudligini tasdiqlaydi: Sirdaryo (101,8%) va Jizzax (49,3%) yuqori darajada markaziy budjetga bog'liqlikni, Toshkent shahri (–27,2%) va Navoiy viloyati (–6,7%) esa nisbatan mustaqil moliyaviy holatni namoyon etadi.

Umuman olganda, daromadlar o'sishi ijobiy jarayon bo'lsa-da, uning hududlar kesimidagi notekisligi hamda transfertlarga yuqori bog'liqlik fiskal mustaqillikni cheklovchi asosiy omil bo'lib qolmoqda. Shu bois mahalliy budjetlar barqarorligini ta'minlash uchun, birinchi navbatda, past daromadli hududlarda — Sirdaryo (1 929 mlrd so'm), Jizzax (2 605 mlrd so'm) va Qoraqalpog'iston Respublikasida (3 333 mlrd so'm) — iqtisodiy faollikni oshirish va soliq bazasini kengaytirish zarur. Shu bilan birga, soliq ma'murchiligini raqamlashtirish, yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish hamda daromadlarni to'liq safarbar etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, budjetlararo transfertlar tizimini takomillashtirish orqali uni faqat qoplovchi emas, balki hududlarning o'z daromadini oshirishga rag'batlantiruvchi mexanizmga aylantirish maqsadga muvofiqdir. Yirik xarajatli hududlarda (Toshkent shahri – 15 551 mlrd so'm, Samarqand – 9 896 mlrd so'm, Toshkent viloyati – 8 729 mlrd so'm) natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirishni joriy etish esa fiskal intizom va samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Shu tariqa, taklif etilgan chora-tadbirlar mahalliy budjetlar daromad mustaqilligini kuchaytirish, transfertlarga qaramlikni kamaytirish hamda hududlararo fiskal nomutanosiblikni yumshatishga yo'naltirilgan.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksi. – Toshkent: Adliya vazirligi, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Hududlar bo'yicha ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar to'plami. – Toshkent, 2025.
3. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. Mahalliy budjetlar ijrosi to'g'risida hisobot. – Toshkent, 2024–2025.
4. Oates, W. E. Fiscal Federalism. – New York: Harcourt Brace Jovanovich, 1972.
5. Musgrave, R. A. The Theory of Public Finance. – New York: McGraw-Hill, 1959.
6. Stiglitz, J. E. Economics of the Public Sector. – New York: W. W. Norton & Company, 2000.
7. Bahl, R., Linn, J. Urban Public Finance in Developing Countries. – Washington, DC: World Bank, 1992.
8. Bird, R. M. Fiscal Decentralization in Developing Countries. – Cambridge: Cambridge University Press, 2010.
9. Shah, A. Fiscal Decentralization and Local Government Finance. – Washington, DC: World Bank Publications, 2007.
10. O'zbekiston iqtisodiy tadqiqotlar markazi. Hududiy iqtisodiyot va fiskal siyosat tahlillari. – Toshkent, 2024.

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

**2026. № 4**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)